e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/1qp8bd39

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA OILAVIY MUNOSABATLAR VA QADRIYATLAR EVOLYUTSIYASI

Razzakova Nargis Yuldashevna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, katta o'qituvchi, (PhD).

e-mail: nargisrazzakova2020@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0000-0002-9718-3610

Annotatsiya.

Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida oilaviy munosabatlar va qadriyatlar evolyutsiyasining nazariy-metodologik asoslari, asosiy tendensiyalari hamda O'zbekistonda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash mexanizmlari tadqiq etiladi. "Raqamli transformatsiya", "oilaviy munosabatlar" va "oilaviy qadriyatlar" tushunchalarining mazmun-mohiyati aniqlashtirilib, oila institutining transformatsiyasini o'rganishga doir xorijiy va mahalliy nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi. Raqamli muhit ta'sirida er-xotin, ota-ona va farzandlar hamda avlodlararo munosabatlarda yuz berayotgan o'zgarishlarning asosiy tendensiyalari yoritiladi. Oilaviy qadriyatlarning barqaror saqlanib qolayotgan, mazmunan qayta talqin qilinayotgan va yangidan shakllanayotgan qadriyatlardan iborat nazariy tipologiyasi taklif etiladi. Shuningdek, raqamli transformatsiyaning oilaviy munosabatlarga ta'sirini empirik o'rganish dasturi hamda raqamli muhitda oilaviy qadriyatlarni rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan konseptual model ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: global muammo, raqamli transformatsiya, oilaviy munosabatlar, oilaviy qadriyatlar, raqamlashtirish, blogerlar, ijtimoiy tarmoqlar, oila instituti, tadqiqotlar, farzand tarbiyasi, salbiy illatlar, jamiyat va oila.

ЭВОЛЮЦИЯ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ И ЦЕННОСТЕЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Раззакова Наргис Юлдашевна

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, старший преподаватель, (PhD).

Аннотация.

В статье исследуются теоретико-методологические основы и основные тенденции эволюции семейных отношений и ценностей в условиях цифровой трансформации, а также механизмы укрепления семейных ценностей в Узбекистане. Уточняется содержание понятий «цифровая трансформация», «семейные отношения» и «семейные ценности», анализируются зарубежные и отечественные теоретические подходы к изучению трансформации института семьи. Рассматриваются основные тенденции изменений супружеских, детско-родительских и межпоколенческих отношений под влиянием цифровой среды. Предлагается теоретическая типология семейных ценностей, включающая устойчивые ценности, ценности, подвергающиеся содержательному переосмыслению, и вновь формирующиеся ценности. Кроме того, разрабатываются программа эмпирического исследования влияния цифровой трансформации на семейные отношения и концептуальная модель развития и укрепления семейных ценностей в цифровой среде.

Ключевые слова: глобальная проблема, цифровая трансформация, семейные отношения, семейные ценности, цифровизация, блогеры, социальные сети, институт семьи, исследования, воспитание детей, негативные социальные явления, общество и семья.

THE EVOLUTION OF FAMILY RELATIONSHIPS AND VALUES IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION

Razzakova Nargis Yuldashevna

Alisher Navoiy Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Senior Lecturer, (PhD).

Abstract.

This article examines the theoretical and methodological foundations and major trends in the evolution of family relationships and values in the context of digital transformation, as well as mechanisms for strengthening family values in Uzbekistan. The concepts of "digital transformation," "family relationships," and "family values" are clarified, and international and domestic theoretical approaches to studying the

ISSN 3060-5059 (Online)

transformation of the family as a social institution are analyzed. The article explores major trends in changes in marital, parent–child, and intergenerational relationships under the influence of the digital environment. A theoretical typology of family values is proposed, encompassing enduring values, values undergoing reinterpretation, and newly emerging values. Furthermore, the article develops a program for the empirical investigation of the impact of digital transformation on family relationships and a conceptual model aimed at developing and strengthening family values in the digital environment.

Keywords: global issue, digital transformation, family relationships, family values, digitalization, bloggers, social networks, family institution, research, child upbringing, negative social phenomena, society and family.

Kirish. Oila — jamiyatning asosiy bo‘g‘ini, insonning shaxs sifatida shakllanishi, milliy-ma’naviy qadriyatlarning avloddan avlodga uzatilishi va ijtimoiy barqarorlikning tayanch instituti. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila jamiyat va davlat muhofazasida ekanligi mustahkamlab qo‘yilgan [1], oila institutini mustahkamlash esa davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan [2, 4]. Shu bilan birga, XXI asrning birinchi choragida oila hayoti tarixda kuzatilmagan tezlikda kechayotgan raqamli transformatsiya sharoitida rivojlanmoqda.

Smartfonlar, mobil internet, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, onlayn ta’lim va masofaviy mehnat shakllari oila a’zolarining kundalik hayotiga chuqur kirib keldi. Oila a’zolari o‘rtasidagi muloqotning katta qismi raqamli kanallarga ko‘chmoqda. Bolalar va o‘smirlar qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni nafaqat ota-onalari va katta avlod vakillaridan, balki ijtimoiy tarmoqlar, blogerlar va global media kontentidan ham olmoqda. Ota-onalar zimmasiga esa farzandlarining raqamli xavfsizligini ta’minlash va ularning raqamli madaniyatini shakllantirish kabi yangi vazifalar yuklanmoqda. Mehnat migratsiyasi keng tarqalgan sharoitda raqamli vositalar ko‘plab oilalar uchun masofadagi yaqinlari bilan aloqani saqlashning asosiy vositasiga aylangan.

«Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasi [3] va «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi [5] mamlakatda raqamli transformatsiyani yanada jadallashtirishni nazarda tutadi. Bu jarayonning oila hayotiga ta’siri kuchayishi muqarrar. Shu bois raqamli transformatsiya oilaviy munosabatlar va qadriyatlarga qanday ta’sir ko‘rsatayotganini, qaysi qadriyatlar barqaror saqlanib, qaysilarining mazmuni o‘zgarayotganini va qanday yangi qadriyatlar shakllanayotganini ilmiy asosda tahlil qilish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Bunday bilimlar oila institutini mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosatini takomillashtirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ota-onalarning raqamli kompetentligini oshirish va oilalarga psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish tizimini rivojlantirish uchun zarur.

METODOLOGIYA

Oila transformatsiyasini o‘rganishning nazariy asoslari R. Inglxart (R. Inglehart) va K. Velzel (C. Welzel)ning modernizatsiya va qadriyatlar o‘zgarishi nazariyasi [13], R. Lestxege (R. Lesthaeghe)ning ikkinchi demografik o‘tish konsepsiyasi, E. Giddensning intimlik transformatsiyasi nazariyasi [12], U. Bek (U. Beck) va E. Bek-Gernsxaym (E. Beck-Gernsheim)ning individualizatsiya nazariyasi [10], M. Kastels (M. Castells)ning tarmoq jamiyati nazariyasi [11] hamda L. Reyni (L. Rainie) va B. Uellman (B. Wellman)ning tarmoqlashgan individualizm konsepsiyasida ishlab chiqilgan. G‘arbdan tashqari jamiyatlarda oila o‘zgarishining o‘ziga xos yo‘llari Ch. Kag‘itchibashi (Ç. Kağıtçıbaşı)ning oila o‘zgarishi nazariyasida [14] asoslangan.

O‘zbekistonda oila muammosi G‘. B. Shoumarov, N. M. Dalimova [6], R. R. Komilov, N. J. Yusupova [9], N. Yu. Razzakova [15], N. Z. Kulbekova, I. A. Jabborov [7], D. X. Yulchiyeva va boshqa olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan. Raqamli muhitning yoshlarga ta’siri O. B. To‘rayev, D. G. Tashmuxamedova [16], O‘. T. Vaxabova tomonidan o‘rganilgan. Bu tadqiqotlarda raqamli transformatsiya asosan yoshlar sotsializatsiyasi va axborot xavfsizligi kontekstida ko‘rib chiqilgan; oilaviy munosabatlar va qadriyatlar evolyutsiyasi esa maxsus tadqiqot predmeti bo‘lmagan.

«Raqamli transformatsiya» tushunchasi dastlab iqtisodiyot va menejment sohasida korxonalarning biznes-jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida qayta qurishni ifodalash uchun qo‘llanilgan. Keyinchalik u kengroq ijtimoiy-falsafiy mazmun kasb etib, jamiyat hayotining barcha sohalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi natijasida yuz beradigan sifat o‘zgarishlarini anglatadigan bo‘ldi. Bu o‘rinda uch bosqichni farqlash maqsadga muvofiq:

1. **Raqamlashtirish (digitization)** — axborotning analog shakldan raqamli shaklga o‘tkazilishi (masalan, oilaviy fotoalbomlarning raqamli arxivga aylanishi).

2. **Raqamlashuv (digitalization)** — mavjud jarayonlarning raqamli vositalar orqali amalga oshirilishi (masalan, oila a’zolarining messenjer orqali muloqot qilishi, kommunal to‘lovlarning onlayn amalga oshirilishi).

3. **Raqamli transformatsiya** — raqamli texnologiyalar ta’sirida faoliyat tuzilmasi, ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar tizimining sifat jihatdan yangilanishi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekistonning rasmiy hujjatlarida «raqamlashtirish» atamasi ko‘pincha keng ma’noda — ikkinchi va uchinchi bosqichlarni ham qamrab olgan holda qo‘llaniladi. Monografiyada esa uch bosqich tahliliy maqsadda alohida farqlanadi.

Oilaviy munosabatlar — oila a’zolari o‘rtasidagi huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy va psixologik aloqalar majmui. Ularni quyidagi asosiy turlarga ajratish mumkin (1.1-jadval).

1.1-jadval. Oilaviy munosabatlar turlari va ularning raqamli muhitdagi yangi jihatlari

ISSN 3060-5059 (Online)

Munosabat turi	**Mazmuni**	**Raqamli transformatsiya ta'sirida yuzaga kelayotgan yangi jihatlar**
Er-xotin munosabatlari	Nikoh, mehr-muhabbat, o'zaro hurmat, rollar taqsimoti, birgalikdagi qarorlar	Raqamli muloqot, onlayn tanishuv, telefon tufayli muloqotning uzilishi ("texnoferensiya"), ishonch va shaxsiy chegara masalalari
Ota-ona va bola munosabatlari	Tarbiya, g'amxo'rlik, nazorat, qadriyatlarni uzatish	Raqamli ota-onalik, ekran vaqtini boshqarish, ota-onalik mediatsiyasi, bola haqidagi ma'lumotlarni tarmoqqa joylash ("sharenting")
Avlodlararo munosabatlar	Katta avlod tajribasining yosh avlodga uzatilishi, keksalarni parvarish qilish	Raqamli kompetentlikdagi tafovut, bilimning yoshlardan kattalarga "teskari" uzatilishi, video-muloqot orqali masofadagi aloqa
Qarindoshlik va qo'shnichilik munosabatlari	Qarindoshlar, mahalla bilan aloqa, o'zaro yordam	Oilaviy va qarindoshlik chat-guruhlari, mahalla guruhlari, virtual hamjamiyatlar

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, raqamli texnologiyalar oilaviy munosabatlarning birorta turini ham chetlab o'tmaydi. Ular, bir tomondan, muloqot imkoniyatlarini kengaytiradi, masofani qisqartiradi, oilaviy hayotni muvofiqlashtirishni osonlashtiradi; ikkinchi tomondan esa, jonli muloqotni siqib chiqarish, oila a'zolarining «birga bo'lib, yolg'iz qolishi» [17], oila chegaralarining xiralashuvi [18] kabi yangi muammolarni keltirib chiqaradi.

1.2-jadval. Oila funksiyalarining raqamli muhitdagi o'zgarishi

Oila funksiyasi	**An'anaviy mazmuni**	**Raqamli muhitdagi o'zgarishlar**
Reproduktiv	Farzand ko'rish, avlodlar davomiyligi	Nikoh va farzand ko'rish yoshining kechikishi, reproduktiv rejalashtirishda axborot manbalarining ko'payishi
Tarbiyaviy (sotsializatsiya)	Qadriyat, me'yor va ko'nikmalarni uzatish	Sotsializatsiya agentlari sonining ortishi (media, blogerlar), ota-onaning raqamli mediatsiya vazifasi
Xo'jalik-iqtisodiy	Umumiy byudjet, uy xo'jaligini yuritish	Onlayn xaridlar, raqamli to'lovlar, masofaviy mehnat, uy va ish chegarasining xiralashuvi
Kommunikativ	Oila a'zolari o'rtasidagi muloqot	Muloqotning raqamli kanallarga ko'chishi, oilaviy chat-guruhlar, jonli muloqot vaqtining qisqarishi
Rekreativ-dam olish	Birgalikda hordiq chiqarish	Birgalikdagi media iste'moli yoki aksincha, har bir a'zoning "o'z ekrani"ga berilishi
Felitsitologik (baxt-farovonlik)	Emotsional qo'llab-quvvatlash, psixologik qulaylik	Raqamli qiyoslash, "ideal oila" obrazining tarmoqlarda namoyish etilishi, qoniqish darajasiga ta'sir
Ijtimoiy nazorat	Oila a'zolari xulqini me'yorlar asosida tartibga solish	Raqamli monitoring vositalari, bolaning onlayn faolligini nazorat qilish muammosi

Jadvaldagi tahlil shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya oila funksiyalarini yo'qqa chiqarmaydi, balki ularning amalga oshirilish shakllari va vositalarini o'zgartiradi. Ayniqsa, tarbiyaviy va kommunikativ funksiyalarda o'zgarishlar eng chuqur namoyon bo'ladi: oila sotsializatsiyaning yagona yoki asosiy agenti bo'lishdan to'xtab, ko'plab raqamli agentlar bilan raqobatlashadigan muhitga aylanadi. G. U. Soldatova va hammualliflarining «raqamli tug'ilganlar» avlodiga bag'ishlangan tadqiqoti oilaviy kontekst bolaning kognitiv rivojlanishi va raqamli ko'nikmalarining shakllanishida hal qiluvchi omil bo'lib qolayotganini ko'rsatadi [19].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, integrativ yondashuv tadqiqotning empirik qismini tashkil etishda ham o'z aksini topadi. Birinchidan, tahlil birligi sifatida alohida shaxs emas, balki oila olinadi: imkon qadar bir oilaning turli avlod vakillari — ota-onalar, farzandlar, bobo-buvilar — so'rovda ishtirok ettiriladi. Ikkinchidan, miqdoriy usullar (anketa so'rovi, statistik tahlil) sifat usullari (chuqurlashtirilgan suhbat, fokus-guruh, oilaviy chat-guruhlar va ijtimoiy tarmoqlar kontentini tahlil qilish) bilan uyg'unlashtiriladi. Uchinchidan, oila tiplari — nuklear, kengaytirilgan, yosh va migrant oilalar — hamda shahar va qishloq oilalari o'rtasidagi farqlar alohida hisobga olinadi. To'rtinchidan, raqamli texnologiyalarning oilaga ta'siri faqat xavf omillari orqali emas, balki imkoniyatlar va resurslar orqali ham o'lchanadi. Bunday tadqiqot dizayni raqamli transformatsiyaning oilaviy munosabatlar va qadriyatlarga ta'sirini ko'p o'lchovli tarzda baholash imkonini beradi va monografiyaning ikkinchi hamda uchinchi boblaridagi tahlil uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, quyidagi asosiy xulosalarga kelindi.

Birinchidan, raqamli transformatsiya oila uchun texnik yangilanish emas, balki oilaning tuzilmasi, funksiyalari, muloqot shakllari va qadriyat yo'nalishlariga ta'sir ko'rsatuvchi tizimli omil sifatida talqin qilindi. Raqamlashtirish, raqamlashuv va raqamli transformatsiya bosqichlarini farqlash oila hayotidagi o'zgarishlarning chuqurligini baholashga imkon beradi.

Ikkinchidan, oilaviy munosabatlar (er-xotin, ota-ona va bola, avlodlararo hamda qarindoshlik munosabatlari) raqamli texnologiyalar ta'sirida yangi shakllar kasb etmoqda. Texnologiyalar oila funksiyalarini yo'qqa chiqarmaydi, balki ularning amalga oshirilish vositalari va shakllarini o'zgartiradi. Eng chuqur o'zgarishlar tarbiyaviy va kommunikativ funksiyalarda kuzatiladi: oila sotsializatsiyaning yagona agenti bo'lishdan to'xtab, ko'plab raqamli agentlar bilan raqobatlashadigan muhitga aylanmoqda.

Uchinchidan, oilaviy qadriyatlar evolyutsiyasi keskin uzilish emas, balki tadrijiy jarayon sifatida kechadi.

Qadriyatning o‘zi va uning namoyon bo‘lish shakllarini farqlash asosida uch guruhdan iborat nazariy tipologiya taklif etildi: barqaror qadriyatlar (ota-onaga hurmat, farzand tarbiyasiga mas’uliyat, mehr-oqibat, oilaning mustahkamligi, oila sha’ni va sirini saqlash), mazmuni qayta talqin qilinayotgan qadriyatlar («kattaga hurmat», oilada qaror qabul qilish me’yorlari, er-xotin rollari haqidagi tasavvurlar) va yangi qadriyatlar (raqamli odob, axborot gigiyenasi, shaxsiy ma’lumotlar va bolaning raqamli shaxsiy hayoti daxlsizligi, avlodlararo raqamli hamkorlik). Mazkur tipologiya gipotetik xususiyatga ega bo‘lib, empirik tekshirishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda referendumda qabul qilingan. – XIV bob. Oila, bolalar va yoshlar // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-6445145.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-son «Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-3546742.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-5030957.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son «O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-3797625.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/6600413.

6. Dalimova N. M. Turli avlod vakillari hayotiy qadriyatlarining ijtimoiy-psixologik determinantlari: psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi: 19.00.05. – Toshkent, 2022. – URL: https://oak.uz/pages/12077.

7. Jabborov I. A. Oilada er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari: falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi: 19.00.05. – Toshkent, 2021. – URL: https://oak.uz/pages/8322.

8. Карпов А. В., Волченкова А. А. Цифровизация как детерминанта детско-родительских отношений // Вестник РФФИ. Гуманитарные и общественные науки. – 2024. – № 4. – С. 59–68. – DOI: https://doi.org/10.22204/2587-8956-2024-119-04-59-68. – URL: https://rcsi.science/upload/medialibrary/51e/fw5zf1m4l4ztwp7zjoe93fss6bx9dr3d/RFBR_4(119)2024_59-68.pdf.

9. Yusupova N. J. Islom oila huquqi: paydo bo‘lishi, rivojlanishi, manbalari va institutlari: yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi: 12.00.01. – Toshkent, 2019. – URL: https://oak.uz/pages/2638.

10. Beck U., Beck-Gernsheim E. The Normal Chaos of Love. – Cambridge: Polity Press, 1995. – ISBN 978-0-7456-1382-6. – URL: https://search.worldcat.org/search?q=9780745613826.

11. Castells M. The Rise of the Network Society. – 2nd ed. – Chichester: Wiley-Blackwell, 2010. – DOI: https://doi.org/10.1002/9781444319514.

12. Giddens A. The Transformation of Intimacy: Sexuality, Love and Eroticism in Modern Societies. – Stanford: Stanford University Press, 1992. – ISBN 978-0-8047-2090-8. – URL: https://search.worldcat.org/search?q=9780804720908.

13. Inglehart R., Welzel C. Modernization, Cultural Change, and Democracy: The Human Development Sequence. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – DOI: https://doi.org/10.1017/CBO9780511790881.

14. Kağıtçıbaşı Ç. Family, Self, and Human Development Across Cultures: Theory and Applications. – 2nd ed. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2007. – URL: https://search.worldcat.org/search?q=Kagitcibasi+Family+self+and+human+development+across+cultures+2007.

15. Razzakova N. Yu. Jamiyatni modernizatsiya qilish sharoitida oilaviy munosabatlarning o‘zgarish dinamikasi: falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati: 22.00.02. – Toshkent, 2025. – URL: https://tsuull.uz/sites/default/files/avtoreferat_nargis_ohirgi_22_08_2025_orginal.pdf.

16. Tashmuxamedova D. G. Virtual tarmoqlar O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy roli shakllanishining omili sifatida: sotsiologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati: 22.00.02. – Toshkent, 2024. – URL: https://api.ziyonet.uz/uploads/books/10001253/fy4xWOjpVcSPiKa.pdf.

17. Turkle S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. – New York: Basic Books, 2011. – ISBN 978-0-465-02234-2. – URL: https://search.worldcat.org/search?q=9780465022342.

18. Mesch G. S. Family Relations and the Internet: Exploring a Family Boundaries Approach // Journal of Family Communication. – 2006. – Vol. 6, № 2. – P. 119–138. – DOI: https://doi.org/10.1207/s15327698jfc0602_2.

19. Солдатова Г. У., Рассказова Е. И., Вишнева А. Е. и др. Рожденные цифровыми: семейный контекст и когнитивное развитие. – Москва, 2022. – 356 с. – URL: https://psy.su/mod_files/additions_1/fle_file_10384.pdf.